

BUDJET TASHKILOTLARIDA DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI

Botirov G'ayrat Gofirovich ¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich ¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi professori

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:06.05.2025

Revised: 07.05.2025

Accepted:08.05.2025

KALIT SO'ZLAR:

byudjet,
konsolidatsiyalangan
byudjet, davlat byudjeti,
davlat xaridi, byudjet
buyurmachisi.

Ushbu maqolada budjet tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirishning huquqiy asoslari bo'yicha nazariy va amaliy asoslari o'rganib chiqildi hamda ulardan kelib chiqqan holda xulosalar va ilmiy-amaliy takliflar shakllantirildi.

KIRISH. O'zbekiston Respublikasida davlat ehtiyojlari uchun kapital qurilishni amalga oshirish va moliyalashtirish joriy mexanizmi quyidagi mavjud qonunchilikka asosan tartibga solinadi:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 7 iyun 110-sonli "Investisiya loyihalari hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish va tasdiqlash tartibi haqidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori;

Adliya vazirligi tomonidan 2009 yil 16 sentabrda 2007-son bilan ro'yxatgan olingan "Davlat byudjetining g'azna ijrosi qoidalari";

Adliya vazirligi tomonidan 2008 yilning 9 yanvarida 1757-son bilan ro'yxatga olingan, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining 2007 yil 27 noyabrda 9-sonli "O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tomonidan qurilish inshootlari uchun qurilish, rekonstruksiya, texnik qayta qurollantirish,

loyiha tayyorlash, materiallar, konstruksiyalar va jihozlarni xarid qilish bo'yicha hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish tartibi haqidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida" qarori.

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida" 2003 yil 3 iyuldagi 302-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi hududida kapital qurilishda tanlov savdolari to'g'risida nizom"ga (keyingi o'rinlarda matnda Nizom deb yuritiladi) asosan, tanlov hujjatlarining texnik qismiga talablarni hamda markazlashtirilgan manbalar (davlat byudjeti mablag'lari, byudjetdan tashqari jamg'arma va Hukumat qarorlari bilan tashkil etilgan alohida tarmoqlar va tashkilotlarning maxsus jamg'armalari, O'zbekiston Respublikasi Huqumati kafolati yoki uning nomidan jalb etiladigan chet el kreditlari, O'zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari) davlat boshqaruv organlari hamda davlat korxonalari mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan barcha turdagi ishlar va xizmatlar tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishning tartibi, umumiy qoidalari muddatlarini belgilab beradi.

Qurilishga, texnik qayta qurollantirish, rekonstruksiya, bino va inshootlarni kapital ta'mirlash bo'yicha pudrat savdolarini o'tkazish uchun tayyorlangan hujjatlarning tarkibida majburiy tartibda tanlov hujjatlarining texnik qismini ishlab chiqish uchun asos bo'lgan loyiha hujjatlariga O'zbekiston Respublikasi davlat ekspertizasining ijobiy xulosasi bo'lishi kerak.

Tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish majburiy bosqich bo'lib, unda taqdim etilgan barcha zarur hujjatlarning mavjudligi, taqdim etilgan hujjatlarning to'laqonliligi, baholash mezonlari va g'olibni aniqlash jihatlari reglamentga hamda tanlov savdolarini o'tkazish tartibotlariga rioya etilganligi tekshirib chiqiladi va tahlil qilinadi.

Tanlov va boshqa tanlov savdosining hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish, tanlov savdolari o'tkazish usuli va uslublari qo'llanishining maqsadga muvofiqligi hamda asoslanganligini aniqlash O'zbekiston Respublikasi Davlat Arxitektura va qurilish qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi (Davarxitektqurilish).

Tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishdan maqsad, buyurtmachi, tanlov savdolari tashkilotchisi va ishlab chiquvchilari tomonidan tanlov hujjatlarini ishlab chiqishda, uni Nizom shartlariga, tanlov savdolari ishlab chiqish, tashkil etish hamda o'tkazish masalalarini tartibga soluvchi boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarga rioya etilishini nazorat qilishdan iboratdir.

"Davarxitektqurilish" tanlov hujjatlarini ekspertiza ko'rigidan o'tkazish uchun belgilangan tartibda komissiya hay'ati tarkibini (ekspert organini) tasdiqlaydi. Bundan

tashqari, nodir va murakkab inshootlar uchun tayyorlangan tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish uchun shartnoma asosida tegishli sohalardan maslahatchilar hamda mutaxassislar jalb etishi mumkin.

Tanlov hujjatlari shunday tarzda ifodalanishi kerakki, uni barcha oferent-talabgorlar bir xilda o'qish va bir xilda tushunish imkoniga ega bo'lishi lozim. Ishlarning tafsilotlarini yozishda umumiy qabul qilingan atama va nomlardan foydalanish lozim.

Tanlov savdolarini ochishda, ekspertiza xulosasi tanlov komissiyasining e'tiboriga yetkaziladi. Ekspertiza xulosasida e'tirozlar mavjud bo'lganda, ularning bartaraf etilganligi haqida materiallar (hujjatlar) taqdim etiladi.


Ekspertiza tomonidan ijobiy xulosa berilganidan so'ng, ochiq tanlov savdolari o'tkazilayotganda, ommaviy axborot vositalarida e'lon chop etiladi, yopiq tanlov savdolari o'tkazilayotganda potensial ishtirokchilarga taklifnomalar yuboriladi.

Tanlov savdolari jarayonida ishtirok etishga taklifnomalarni jo'natish bo'yicha e'lonlarni chop ettirish, pudratchilarni muddatida tayyorgarlik ko'rishlari va o'z talabnomalarini taqdim etishlari uchun yetarli bo'lgan muddatda, lekin e'lon chop etilgan kundan e'tiboran kamida 30 kalendar kun va taklifnoma jo'natilgan kundan e'tiboran 35 kundan kam bo'lmagan muddatlarda, buyurtmachi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Ekspertizaga taqdim etiladigan hujjatlar

Buyurtmachi ekspertizadan o'tkazish uchun tanlov savdosi hujjatlarining to'liq to'plamini hamda ruxsat beruvchi hujjatlarni va matbuotda nashr etish uchun tayyorlangan e'lonning to'la matnini tasdiqlangan holda kuzatuv xati bilan taqdim etadi.

1-rasm. Davlat xaridlaridagi tanlov hujjatlari



Texnik qism - bu talabgorlar o'z tanlov takliflarining qiymatini hisob-kitob qilishi uchun zarur va yetarli bo'lgan xarid qilinayotgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) miqdori hamda xarakteristikasini, ishlarning bajarilish (tovar yetkazib berish, xizmatlar) muddati, shuningdek, tanlov savdolari bir bosqichda amalga oshirilganda tanlov savdolari buyurtmachisi va g'olib tomon o'rtasida tuziladigan shartnomadan so'nggi hisob-kitoblarini o'zida mujassamlashtirgan ma'lumotlardan iborat hujjatlar yig'ma jildidan tashkil topadi.

Ikki bosqichli tanlov savdolarini o'tkazishda texnik qismi birinchi bosqichda talabgorlar tanlov takliflarini tayyorlashlari uchun zarur va yetarli bo'lgan tanlov savdolari predmetini taxminiy xarakteristikasini ifodalovchi hujjatlardan tarkib topadi.

Texnik qism quyidagi tarkibda shakllantiriladi:

Bino va inshootlarni qurish, texnik qayta qurollantirish, rekonstruksiya qilish hamda kapital ta'mirlash uchun o'tkaziladigan pudrat savdolari uchun:

a) ish loyihalar mavjud bo'lganda, "kalit bilan" topshirish sharti hisobga olingan holda:

buyurtmachining muhri va imzosi bilan tasdiqlangan mahalliy resurs qaydnomalari (5-shakl tavsiya qilinadi);

agar mahalliy resurs qaydnomalarida qo'llaniladigan material, jihoz va konstruksiyalarning turlari hamda rusumlari ko'rsatilmagan bo'lsa, material, jihoz va konstruksiyalarning buyurtma xususiyatlari;

b) dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash (dastlabki texnik iqtisodiy hisoblash-DTIA) yoki texnik-iqtisodiy asoslash (texnik iqtisodiy hisoblash -TIA) mavjud bo'lgan hollarda:

tanlov takliflarini tayyorlash uchun kerakli bo'lgan DTIA yoki TIA materiallari, narx ko'rsatkichlari bundan mustasno;

DTIA yoki TIA asosida ishlab chiqilgan tanlov savdolari predmetini izohlab beruvchi buyurtmachining tushuntirish xati;

buyurtmachini loyiha hujjatlarini to'liq ravishda, tanlov g'olibiga o'z vaqtida taqdim etish to'g'risida belgilangan tartibda tasdiqlangan kafolat xatlari;

v) DTIA yoki TIA asosida "kalit bilan" topshirish sharti bilan bo'lgan hollarda:

DTIA yoki TIA materiallari (narx ko'rsatkichlari bundan mustasno);

loyihaning keyingi bosqichlardagi loyihalashtirish topshiriqlari;

birinchi sonli arxitektura-rejalashtirish topshirig'i (birinchi ART) va ikkinchi sonli arxitektura-rejalashtirish topshirig'i (ikkinchi ART) yoki ularning o'rnini bosuvchi hujjatlar;

topografik materiallar va qurilish maydoni o'rganilgan geologik- muhandislik qidiruv materiallari;

ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan mavjud bino va inshootlarni tekshiruv materiallari (zaruratga qarab);

buyurtmachining muhri va imzosi bilan rasmiylashtirilgan ish hajmlarining qaydnomalari DTIA yoki TIA hamda loyihalash uchun topshiriqlarda ko'zda tutilmagan qo'shimcha ish va xizmatlar topshirilganda paydo bo'lgan hollarda talabgorga loyiha oldi va asosiy ish, xizmatlar bilan birgalikda bajarish uchun beriladi;

Loyihalashtirishdagi pudrat savdolari uchun:

a) DTIALarni ishlab chiqish uchun:

tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan obyektning oldindan joylashuv manzilini kelishilganligi to'g'risidagi qarori (yer uchastkasini tanlash hujjatlari);

belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan DTIALarni ishlab chiqish topshiriqnomasi;

b) loyiha hujjatlarini ishlab chiqishga DTIALardan tashqari:

belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan loyihalashtirishning avvalgi bosqichda ishlab chiqilgan materiallari DTIA yoki TIA (mavjud bo'lsa);

birinchi MRT va ikkinchi MRT yoki ularning o'rnini bosuvchi hujjatlar (zaruratga qarab);

belgilangan tartibda tasdiqlangan loyihalashtirish topshiriqi;

belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan mazkur ish turini bajarishga ixtisoslashtirilgan tashkilot tomonidan bajarilgan mavjud bino va inshootni tekshiruv materiallari yoki defekt hujjatlari (zaruratga qarab);

chizma qismi quyidagi tarkibda: topografik materiallar, geologik- muhandislik qidiruv materiallari;

buyurtmachining muhri va imzosi bilan rasmiylashtirilgan ish hajmlari qaydnomalari (talabgorga loyihalash uchun topshiriqlarda ko'zda tutilmagan qo'shimcha va loyiha oldi ish yoki xizmatlar topshirilganda taqdim etiladi);

Moddiy-texnik maqsadlardagi mahsulotlarni xarid qilish bo'yicha savdolarga:

buyurtmachining xarid qilinadigan uskunalar yoki moddiy-texnik maqsadlardagi mahsulotlarga, bundan tashqari, mazkur ishlar jarayonida kerakli boshqa ish hamda xizmatlarga talabi va boshqa talab hamda tavsiflar yuzasidan umumiy qismlardan iborat tanlov predmetiga qo'yilgan talablarga tushuntirish xati yoki DTIA yoki TIALardan ko'chirmalar (zaruratga qarab);

belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan xarid qilinadigan uskunalar yoki moddiy-texnik maqsaddagi mahsulotlar ro'yxati, yoki buyurtmachining muhri va imzosi bilan rasmiylashtirilgan buyurtma xususiyatlari hamda birgalikda ish va xizmatlarning ro'yxati

yoki birgalikda ish va xizmatlarning lokal resurs qaydnomalari (agar tanlov savdolari shartlari bo'yicha birgalikda ish va xizmatlar ko'zda tutilgan bo'lsa);

chizma materiallar: texnologik jihozlarning joylashtirish rejalari, nostandart jihozlar va boshqa chizmalar (zaruratga qarab).

Ruxsat beruvchi hujjatlar quyidagi tarkibda shakllantiriladi:

tender hujjatlarini ishlab chiqish huquqini beruvchi lisenziyaning nusxasi (tegishli Hukumat qarorlari bilan tanlov hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha faoliyati belgilanmagan ishlab chiquvchilarga qo'llaniladi);

kredit shartnomasi yoki bank ma'lumotnomasi yoki qurilishning manzil ro'yxati yoxud davlat boshqaruv organining qarori, belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ajratiladigan mablag'larning narxlarini ko'rsatgan holda yo'naltiriladigan moliyalashtirish manbaini aniqlovchi investor (sarmoyador)ning qarz bitimlari yoki boshqa hujjati;

davlat ekspertizasining loyiha hujjatlari va boshlang'ich narxi (pudrat tanlov savdolari o'tkazishda ish loyihasi ishlab chiqilgandan so'ng) yoki boshlang'ich narx bo'yicha berilgan ijobiy xulosasi (kapital ta'mirlash uchun kichik loyihalarni amalga oshirilayotganda);

DTIA yoki TIALarni tasdiqlash to'g'risida belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlar (pudrat tanlov savdolarini o'tkazishda DTIA yoki TIA ishlab chiqilgandan so'ng);

pudrat savdolarini o'tkazish uslubini aniqlovchi va tanlov komissiyasi tarkibini tasdiqlovchi buyurtmachining rasmiy boshqaruv hujjati;

tanlov savdolarini o'tkazish muddatini belgilagan, tanlov savdolarida ishtirok etish uchun buyurtmalarni ta'minlash shakllarini ko'rib chiqib tasdiqlagan, kelib tushgan tanlov takliflarni texnik va moliyaviy baholash mezonlarini ko'rib chiqib tasdiqlagan hamda tanlov komissiyasining ish reglamentini ko'rib chiqib tasdiqlagan tanlov komissiyasining tanlov oldi yig'ilishi bayonnomasi;

belgilangan tartibda buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan tanlov komissiyasining ish reglamenti (tartibi);

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investisiyalar va savdo vazirligining import tovarlar (ishlar va xizmatlar)ni xarid qilishda uskuna, qurilish materiallari, konstruksiyalar, ishlar hamda xizmatlarning narxlar konyunkturasi bo'yicha xulosasi.

Ruxsat beruvchi hujjatlar va matbuotda nashr etiladigan e'lon matni tanlov hujjatlari tarkibida talabgorlarga berilmaydi. Tanlov hujjatlarining texnik va ruxsat beruvchi qismi tarkibiga kiruvchi hujjatlar ro'yxati tanlov savdolarining predmeti hamda shaklidan kelib chiqib o'zgartirilishi mumkin.

Zarurat tug'ilganda ekspert organi o'z vakolatiga doir masalalar bo'yicha buyurtmachidan ko'rib chiqiladigan tanlov hujjatlari bo'yicha qo'shimcha ma'lumot yoki hujjatlarni so'rab olish huquqiga ega.

Ekspertizada tekshiriladigan va tahlil qilinadigan asosiy masalalar:

Tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazishda quyidagi asosiy masalalar tekshiriladi va tahlil qilinadi:

tanlov hujjatlari, shu jumladan, ruxsat beruvchi hujjatlarning to'la hajmda mavjudligi;

bir xil nom, yagona atama va ularning ifoda etilishidan foydalanilganligi;

savdo ishtirokchilariga qo'yiladigan talablarga amal qilinganligi (lisenziya, yetarli ish tajribasining borligi, moliyaviy holati, texnika bilan jihozlanishi, savdoning aniq inshootlariga qarab boshqa malaka talablari);

takliflarni texnik va moliyaviy baholashda mezonlarni qo'llashning holisonaligi va ularning ahamiyati;

tanlov hujjatlarini ishlab chiqishda "O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tomonidan qurilish inshootlari uchun qurilish, rekonstruksiya, texnik qayta qurollantirish, loyiha tayyorlash, materiallar, konstruksiyalar va jihozlarni xarid qilish bo'yicha hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish tartibi haqidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida" qarori (9.01.2008 yil, 1757-sonli, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasining 27.11.2007 yil 9-sonli) Nizomining hamda tanlov hujjatlarini ishlab chiqish, tashkil etish va qurilishda tanlov savdolarini o'tkazish borasidagi O'zbekiston Respublikasining boshqa meyoriy hujjatlar talablariga muvofiqligi tekshiriladi va tahlil qilinadi;

tanlov hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni tahlil qilish.

Tanlov hujjatlarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha tanlov savdosi hujjatlarini tasdiqlash uchun yoki uning kamchiliklarini bartaraf etish uchun kamchiliklari ko'rsatilgan holda qayta ishlashga tavsiya etuvchi ekspertiza xulosasi tuziladi.

Xulosa ekspert organining rahbari tomonidan tasdiqlanadi va buyurtmachiga yuboriladi.

Ekspertizaning ijobiy xulosasi matbuotda tanlov savdosi to'g'risidagi e'lonni chop ettirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tanlov savdosi hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish muddati o'n kundan ortib ketmasligi lozim.

Qayta ekspertiza ko'rigidan o'tkazish muddati ekspertiza xulosasida ko'rsatilgan xato va kamchiliklar bartaraf etilgandan hamda buyurtmachi (tashkilotchi)ning qaytadan murojaat etganidan keyin besh kundan oshmaydi.

Tanlov savdosi hujjatlarini tayyorlash, ekspertizadan o'tkazish hamda tanlov savdolarini tashkil etish va o'tkazish buyurtmachi (investor) mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Tanlov hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Ekspertiza xulosasining amal qilish muddati tanlov hujjatlarini tarkibiga kiruvchi texnik qism va ruxsat beruvchi hujjatlarning muddatlari hamda tanlov savdolari ishtirokchilari uchun Yo'riqnomalarning (ilovalar va qo'yilmalar mazmunini o'zgartirishga) amal qilish muddati bilan chegaralanadi.

Ekspertiza xulosasining amal qilish muddati, tanlov hujjatlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar natijasida texnik qismining tarkibi o'zgarmasa va O'zbekiston Respublikasining meyoriy-huquqiy hujjatlari "Davrixitektqurilish" tomonidan uzaytirilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati:

1. Baltina A.M. «Finasoviye sistemi zarubejnix stran». Uchebnoye posobiye. M.: FiS, 2007 g. 304 str.

A. Vahobov, U. Burxanov, N. Jumayev. Chet mamlakatlar moliyasi. Darslik. T. O'zbekistan. 2003.

2. Vahobov A. va boshqalar. Byudjet - soliq siyosati yaxlitligi. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod va moliY. 2005. 264b.

3. Vahobov A. va boshqalar. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv qo'llanma. - T.: Iqtisod va moliY. 2008. 260b.

4. Malikov T., Haydarov N., "Davlat byudjeti". O'quv qo'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2007, 84 b.

5. Malikov T., Xaydarov N., "Byudjet daromadlari va xarajatlari" o'quv qo'llanma, Toshkent: "IQTISOD-MOLIYA", 2007 y, 245b.

6. Malikov T., Haydarov N., "Byudjet: tizimi, tuzilmasi, jarayoni". O'quv qo'llanma, Toshkent "IQTISOD-MOLIYA", 2008 y, 84b.

7. Neshitoy A.S. "Finansi". Uchebnik. –M.: «Dashkov i K» 2007 g 512 str.

8. Romanovskiy M.V. «Finansi» Uchebnik. –M.: «Yurayt» 2008 g. 462 str.

9. Haydarov N. Davlat moliyasini boshqarish. O'quv uslubiy qo'llanma, T.: AkademiY. 2005. 84 b.